

“QO‘Y” LMGi ASOSIDA SHAKLLANGAN MO‘TADIL XARAKTERLI XALQ MAQOLLARINI SEMANTIK TEGGLASH

Sharipova Maftuna Jamshidovna

BuxDU O‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7511351>

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada “qo‘y” lug‘aviy ma‘noviy guruhiga oid maqollar semantik jihatdan teglangan. Paremlar ifodalaydigan ma‘nolar alohida semalarga ajratilgan. “Qo‘y” LMGi asosida shakllangan maqollar guruhlariga ajratilgan holda izohlangan, qiyosiy tahlilga tortilgan.

Аннотация: В статье рассматривается ряд единиц касающихся языковой и духовной группы “овец”. Значения, выраженные в узбекских национальных пословицах, с группированы в отдельные группы. Эти статьи основаны на корпусной лингвистике. Процессы связанные с овцами объясняются и сравниваются.

Annotation: The article deals with a number of unities concerning to linguistic and spiritual groups of the word “sheep”. The meanings expressed in Uzbek national proverbs are grouped into separate groups. These articles are based on corpus linguistics. The processes related to the word “sheep” animal are described and analyzed.

Kalit so‘zlar: maqol, lug‘aviy ma‘noviy guruh, darajalanish, korpus, semantik teglash, qo‘y, mo‘tadil, sema, semema.

Ключевые слова: пословицы, градация, процессы, связанные с овцами, объясняются и сравниваются, баран, умеренный, sema, semema.

Keywords: proverb, lexical spiritual group, graduation, livestock, sheep, moderate, sema, semema.

O‘zbek xalq maqollarida zoonimlarining qo‘llanilishini kuzatish jarayonida har bir hayvon nomi o‘zining semik taraqqiyotiga ega ekanligi aniqlandi. Chunki ularning nutqda voqelanishi turlicha kechadi. Har bir leksema ichki semalarga bo‘linadi. Jumaladan, “qo‘y” leksemasi bir necha semalarning umumlashmasidan hosil bo‘ladi. Shu jihatga ko‘ra o‘zbek xalq maqollarida “qo‘y” sememasining semalarini 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Ijobiy semalar.
2. Mo‘tadil semalar.
3. Salbiy semalar.

Yuqoridagi 3 guruhdan mo‘tadil semalar turiga alohida e‘tibor qaratdik:

< Toy otga ergashadi, Qo‘y serkaga> [6,484] <Qo‘yni serka, o‘yinni erka boshlar>
--

[7,211] <Bir qo'yga pichoq, Ikki qo'yga tayoq> [7, 206]	< Itoatkorlik, ergashuvchanlik >
< Yolg'iz qo'yning terisi po'stin bo'lmas > [6.14]	< Imkoniyati chegaralaganlik >
< Egachili qizga to'n qayda, Echkili qo'yga suv qayda> [8,184]	< Go'llik, lapashanglik >
<Qo'y egiz tug'sa, cho'pning boshi ayri tushar > [8,297]	< Doimiy nazoratda bo'lish >
< Qo'yning og'zi to'y masa, qorni to'y mas [8, 296]	< Xo'rakilik >
< Qo'rqmas kelin qo'y boshidan qo'rqar> [8,301] <Qo'rqoqqa qo'y boshi qo'sh ko'rinar, Qo'shmog'i bilan besh ko'rinar> [7,213]	< Maydalik (hajm-miqdor)>
<Qo'y katta, qo'zi kichik, echki sizga lozim emas> [8,296]	< Obro'lilik >

Egachilik qizga to'y qayda,

Echkili qo'yga suv qayda.

Egachi I. Bir ota-onadan tug'ilgan qizlarning kattasi (kichigiga nisbatan; tarixan va ba'zi shevalarda o'g'il ukaga nisbatan ham aytiladi). II. Ayol kishining o'zidan katta yoshdagi (shuningdek, hurmat yuzasidan kichik yoshdagi) ayolga murojaati [3,19]. Egachisi bor, ya'ni opasi bor qizning to'y bo'lishi amri mahol, undan oldin voyaga yetgan, bo'yi yetgan qiz borligi, singilning esa hali to'ydan umidvor bo'lmasligi ta'kidlangan. O'z ma'nosida esa maqolda "qo'y" leksemasining go'llik semasi yetakchilik qilgan. Ya'ni echki qo'yga nisbatan chaqqon, epchil jonivor, qo'y esa go'l, lapashang hayvon sifatida izohlangan. Echki bo'lgan joyda qo'yga yo'l yo'q, yoki biror narsaga ega bo'lishiga umid ham yo'q, degan ma'no ilgari surilgan. Echki hayotda uddaburon kishilarga, qo'y esa bo'shang insonlarga nisbat qilingan [1].

Qo'y egiz tug'sa cho'ponning boshi ayri tushar.

Qo'y - serharakat, bir joyda turmaydigan hayvon. Cho'pon kecha-kunduz yaylovda qo'y ortidan yuradi. Qo'y egiz tug'gan taqdirda, cho'ponning boshi ayri tushadi, ya'ni xayoli ikki tomonda bo'ladi. Ko'chma ma'noda esa har bir farzandga alohida mehr, e'tibor zarur.

Qo'y katta, qo'zi kichik, echki sizga lozim emas.

Hayotda har narsadan noliydigan, ziqna insonlarga nisbatan bu maqol qo'llanadi. Arzimas narsalardan kamchilik topadigan kishilar tanqid ostiga olingan. Bunday kishilarga qo'y katta, qo'zi kichik, echki esa kerak emas. Ushbu maqol ko'proq majoziy ma'no kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, milliy-madaniy xususiyatlarni o'rganish va saqlash masalalari tobora dolzarb bo'lib borayotgan hozirgi davrda og'zaki ijod namunalarni lingvistik nuqtayi nazardan tadqiq etish muhim masala sifatida maydonga chiqadi. Og'zaki ijodning sermahsul turi maqol bo'lib, u millat va uning tili bilan birga tug'iladi, yashaydi; uning zamirida xalqning kechinmalari, dunyoviy tajribasi, falsafasi ifodalangan bo'ladi. Har bir soha vakili maqolni turli jihatlariga ko'ra tahlil qiladi: tarixchilar ulardan xalq qadimiy odatlari va antik davr voqealari aks-sadosini topsa; etnograflar unutilgan yoki unutilayotgan urf-odatlar va ularning tabiati haqida tasavvurga ega bo'lsa; tilshunoslar xalq tafakkurining bebaho durdonalaridan kelib chiquvchi xulosalarni lingvistik nuqtayi nazardan konseptlar shaklida tadqiq etadi. Asrlar davomida har bir xalq kundalik nutqida ibora, matal, maqol kabi birliklarni qo'llaganki, ular etnik guruhlar hayotini obrazli tarzda aks ettirish bilan alohida ajralib turadi. Maqollar avlodlar tarixi va ijtimoiy hayot tajribasini umumlashtiruvchi qisqa, aniq, lo'nda birliklar sifatida inson hayoti faoliyatining turli qirralari, atrofdagi olam hodisalarini yorqin va chuqur ifodalashi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Maqollar ma'lum etnik qatlamning tarixi, urf-odati, turmush tarzi, ma'naviy salohiyatini o'zida mujassam etgan bo'lib, bu madaniyatlararo o'xshash hamda farqli jihatlarni o'rganish imkonini beradi. Jahon tilshunosligida zoonimlar, zoonim komponentli birliklarning o'rganilishida, asosan, qiyosiy tahlil yetakchilik qilganligi; turkiy tilshunoslikda, odatda, lingvokulturologik tahlil asoslariga e'tibor qaratilganligi ko'zga tashlanadi. "Qo'y" LMGi asosida shakllangan o'zbek xalq maqollarida hayvon nomi tasviriylikni, obrazlilikni ta'minlovchi vosita sifatida nisbatlash, o'xshatish, ma'no ko'chirish orqali kishilarning ko'rinishi, xatti-harakati, xarakter-xususiyati kabilarni ifodalashga xizmat qiladi.

O'zbek xalq maqollarida "qo'y" LMGi mo'tadil sema sifatida: itoatkorlik, ergashuvchanlik, imkoniyati chegaralangan, doimiy nazoratda bo'lishlik, xo'raki, maydalik (hajm-miqdor), bahona kabi semalarni ifodalab kelishini kuzatdik. Maqollarni kompyuter lingvistikasi fani asosida bunday teglash kelajakda korpus lingvistika fani rivoji uchun xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. – Toshkent, 1990, –528 b.
2. O'zbek xalq maqollari. 1-jild. A-O. – Toshkent: Fan, 1987. – 368 b.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки жилдлик. 1-жилд. А-Р. Москва: Рус тили. 1981, 19 бет.
4. О‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki jildlik. 1-jild. A-R. –Moskva: Rus tili, 1981. – 631 b.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki jildlik. 2-jild. A-R. Moskva: Rus tili. 1981, 601 – bet.
6. Ўзбек халқ мақоллари. Тошкент. Ғавур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти 1989. 398 б.
7. Холманова З. Тошева Д. Зооним компонентли паремаларнинг изоҳли луғати. Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016, 209 бет.
8. O‘zbek xalq maqollari. 2-jild. P-N. – Toshkent: Fan, 1988. – 368 b.